

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MAHALLA INSTITUTI – O‘ZBEK XALQI MENTAL TAFAKKURI VA JAMOAVIY HAYOTINING ASOSI

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbaevna

Urganch tibbiyot instituti, dotsent (DSc).

e-mail: r.kurbaniyazova_57@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-7276-2475>

Annotatsiya.

O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalarining asosiy negizi mahalla instituti orqali namoyon bo‘ladi. Mahalla instituti xalqimizning ma’naviy dunyosini muayyan tamoyillar doirasida muvofiqlashtirish, ijtimoiy maqsadlar birligini ta’minlash, ijtimoiy hamkorlikdagi faoliyatlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Mahalla, turmush tarzi, jamoaviylik, o‘zini-o‘zi boshqarish, tarbiya maskani.*

ИНСТИТУТ МАХАЛЛИ — ОСНОВА МЕНТАЛИТЕТА И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Курбаниязова Раушана Курбанбаевна

Ургенчский медицинский институт, доцент (DSc).

Аннотация.

Основной основой структур самоуправления граждан в Узбекистане является институт махалли. Институт махалли представляет собой социально-экономическое и территориальное сообщество, призванное координировать духовный мир нашего народа в рамках определенных принципов, обеспечивая единство социальных целей и осуществляя деятельность в сфере социального сотрудничества.

Ключевые слова: Махалла, образ жизни, коллективизм, самоуправление, образовательное учреждение.

THE MAHALLA INSTITUTION AS THE FOUNDATION OF THE UZBEK PEOPLE’S MENTALITY AND COMMUNITY LIFE

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbaevna

Urgench Medical Institute, Associate Professor (DSc).

Abstract.

The mahalla institution is the fundamental foundation of citizen self-government structures in Uzbekistan. The mahalla institution is a socio-economic and territorial community designed to coordinate the spiritual world of our people within certain principles, ensuring unity of social goals and implementing activities in the sphere of social cooperation.

Keywords: Mahalla, lifestyle, collectivism, self-government, educational institution.

Kirish. O‘zbek xalqi azaldan jamoaviylik orqali ma’naviy yetuklikka intilib yashagan. Mahalla inson hayotining barcha sohalarini o‘zida mujassam etgan, milliy va an’anaviy tuzilma sifatida jamiyat hayotini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi.

Mahalla (arab. *mahalla* – joy, o‘rin, makon) – shaharning yoki aholi yashash hududining muayyan qismini o‘z ichiga olgan, aholisi bir jamoaga birlashgan hamda o‘zini o‘zi boshqarish tamoyiliga asoslangan ijtimoiy-hududiy birlik bo‘lib, ayni bir hududda yashovchi fuqarolar jamoasini anglatadi.

Mahalla institutining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi xalqimizning jamoaviy turmush tarzi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbek xalqi asrlar davomida milliy-etnik va kasbiy asoslarda shakllangan yaqin qo‘shnichilik tizimi negizida istiqomat qilib kelgan. Bu holat, bir tomondan, o‘zbek xalqining urug‘-qabila asosidagi etnogenezi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kasbiy faoliyat va ishlab chiqarish bilan bog‘liq turmush tarzini tashkil etish, ya’ni muayyan faoliyatni amalga oshirish hamda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga asoslangan demografik joylashuv xususiyatlari bilan izohlanadi. Aynan shu omillar o‘zbek xalqining shakllanishi va millat sifatida tarkib topish jarayonida muhim rol o‘ynagan.

Insoniyat tarixida o‘zini o‘zi boshqarishning turli shakllari mavjud bo‘lgan. Bu hodisa har bir xalqning turmush tarzi, mental tafakkuri va tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi, avvalo, mahalla instituti orqali namoyon bo‘ladi. Mahalla instituti xalqimizning ma’naviy dunyosini

muayyan tamoyillar asosida uyg'unlashtirish, ijtimoiy maqsadlar mushtarakligini ta'minlash hamda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoa hisoblanadi.

Mamlakatimizda mahalla institutini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan davlat siyosati ikki muhim vazifani hal etishni nazarda tutadi.

Birinchidan, ma'naviy sohada xalqimizning ko'p asrlik tarixida shakllangan noyob milliy an'analar va qadriyatlarini tiklash, asrab-avaylash hamda rivojlantirish.

Ikkinchidan, siyosiy-huquqiy yo'nalishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, viloyat, shahar va tuman hokimliklari zimmasidagi ayrim vakolat va vazifalarni bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish, ularning ijtimoiy-huquqiy maqomini mustahkamlash hamda shu orqali jamiyat hayotini yanada demokratlashtirishdan iborat.

2010-yil 12-noyabrda qabul qilingan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”**da quyidagicha ta'kidlangan: **“Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi”** [2, 42].

Qadimdan xalqimizga xos bo'lgan jamoaviy turmush tarzini o'rganish masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Abu Nasr Forobiy **“Fozil odamlar shahri”** asarida inson kamolotga erishishi uchun uning jamiyatda, boshqalar bilan hamkorlikda yashashi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aynan o'zaro hamkorlik jarayonida insonlar jamoasi shakllanadi [7, 224]. Olimning qayd etishicha, jamoa faqat ma'rifatli va fozil insonlardan tashkil topgandagina mukammal ijtimoiy tizim sifatida faoliyat yurita oladi.

Buxoroning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy **“Buxoro tarixi”** asarida bundan 1100 yil ilgari Buxoroda 19 ta yirik mahalla mavjud bo'lgani va ular o'zini o'zi jamoaviy boshqarganligi haqida yozib qoldirgan [8].

Buyuk sarkarda Amir Temur **“Temur tuzuklari”** asarida saltanatni boshqarishda mahallalarning o'rni hamda o'zini o'zi boshqarish institutlarining zarurligi haqida to'xtalib, **“mazkur masalaning samarali yechimi davlat va jamiyat boshqaruvining uyg'unlashuvida”** ekanligini ta'kidlaydi [9, 344].

Aholining birgalikda uyushib yashashi masalasini fransuz sotsiologi E. Dyurkgeym ijtimoiy hamjihatlik nazariyasi asosida tadqiq etgan. U 1896-yilda **L'Année Sociologique** (“Sotsiologicheskii yezegodnik”) jurnalida **“Guruh mentaliteti”** bo'limini tashkil etib, mentalitetni o'ziga xos jamoaviy tasavvurlar sifatida talqin qilgan hamda shu orqali uning mohiyati va vazifalarini yoritib bergan. Olimning jamiyat haqidagi qarashlarining asosini **“ijtimoiy birdamlik” (solidarité)** konsepsiyasi tashkil etadi. Uning fikricha, jamiyat hayotida ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro aloqadorlik mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki turdagi ijtimoiy birdamlik – **“mexanik birdamlik”** va **“organik birdamlik”** ustuvor o'rin tutadi [6, 400].

Mahalla tizimining ijtimoiy hamkorlik va bag'rikenglik fazilatlarini o'zida mujassam etgan xalq mental tafakkurining mahsuli ekanligi, fuqarolik jamiyatining taraqqiyot darajasi esa nodavlat notijorat tashkilotlari, xususan, mamlakatimizdagi demokratik turmush tarzining asosini tashkil etuvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining takomillashganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

O'zbek xalqi mohiyat e'tiboriga ko'ra jamoaviy xalq bo'lgani sababli, o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari milliy mentalitetimizning o'ziga xos ifodasi hisoblanadi.

Mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston hukumati davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Mustaqillik yillarida o'n mingga yaqin mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etildi. Shundan 8142 tasi mahalla fuqarolar yig'inlaridan iboratdir.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptual siyosiy dasturiga muvofiq, mahallalar fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida e'tirof etildi.

1992-yil 12-sentyabrda Respublika **“Mahalla”** xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Shuningdek, 1992-yil 17-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Respublika “Mahalla” xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida”**gi qarori qabul qilindi [3].

Mazkur qarorga muvofiq, jamg'arma nizomida uning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritishi belgilandi:

- tarixan shakllangan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish;
- eng yaxshi milliy urf-odat va an'analarni ommalashtirish, aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish;
- xayr-saxovat va insonparvarlik g'oyalarini, odamlar o'rtasida o'zaro tushunish va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va bolalarning huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish.

Jamg'arma 1996-yildan buyon o'zining **“Mahalla”** gazetasini muntazam nashr etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi **“Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida”**gi 292-son qarori [4] qabul qilinib, unga muvofiq mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, shuningdek, mahallalarda mavjud muammolarni o'z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari hamda tashkilotlarining hududlardagi vakillari imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan mahallalarda **“yettilik”** faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan. Mahallalarda ishlar quyidagi 7 yo'nalish bo'yicha tashkil etiladi:

1. **Mahalla raisi** – ehtiyojmand oilalarning uy-joy sharoitini yaxshilashga ko'maklashish;

2. **Hokim yordamchisi** – ishsiz fuqarolarga ish topishga ko'maklashish;
3. **Yoshlar yetakchisi** – yoshlarni sport, musiqa va turli to'garaklarga jalb etish;
4. **Xotin-qizlar faoli** – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qilish;
5. **Profilaktika inspektori** – mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, xavfsiz muhitni ta'minlash hamda fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish;
6. **Soliq xodimi** – mahalladagi mavjud imkoniyatlarni ishga solish, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning kichik biznes toifasiga o'tishiga ko'maklashish;
7. **Ijtimoiy xodim** – yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa ehtiyojmand fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritish ularning asosiy vazifalari etib belgilangan.

"Mahalla aholi turmush tarzini erkin his ettirishi, uning hayotini belgilab beruvchi omillarni o'zida uyg'unlashtirgani va xalq uchun xizmat qiladigan barcha madaniy hamda ma'naviy merosni o'zida jamlagani uchun ham u milliy davlatchilikda demokratik jarayonlarni amaliyotga tatbiq etishning o'ziga xos jihatlarini yaratib beradi" [10, 135].

Mamlakatimizda mahalla institutining **fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi** deb nomlanishi uning serqirra faoliyati mantig'idan kelib chiqadi. Qator chet el davlatlarida bu institut **mahalliy o'zini o'zi boshqarish** (munitsipal boshqaruv; inglizcha *municipal* – mahalliy o'zini o'zi boshqarish) deb yuritiladi. Mamlakatimizda esa mahallaning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi deb atalishi uning fuqarolik jamiyatiga xos mohiyatini ifoda etadi. Mahalliy boshqaruv deganda muayyan davlat funksiyalarini amalga oshirish ham nazarda tutiladi, ya'ni mahalliy boshqaruvda davlat tuzilmalari ham ishtirok etadi.

Ijtimoiy boshqaruv jarayonlari odatda quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– davlat boshqaruvi;

– jamoaviy boshqaruv;

– an'ana va marosimlar orqali boshqaruv tizimi. Mazkur boshqaruv turi davlat boshqaruvidan tashqari amal qilib, asosan hayotdagi standart va nostandart holatlarning yechimini tajriba, an'ana, urf-odat va rasm-rusumlar vositasida, milliy mentalitet xususiyatlariga tayangan holda ta'minlaydi.

Mahallada amalga oshirilayotgan faoliyat jarayonida, avvalo, hududdagi milliy turmush tarzining odatiy maromini saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda odamlar o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlash eng muhim jihatlar sanaladi. Aynan shu jihatlar, ya'ni odatiy turmush tarzini, erishilgan ijtimoiy muhitni saqlash va uni keyingi avlodlarga yetkazish, o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarining qadimiy tarixiga xos xususiyatlardandir.

Mahalla tarbiya maskani hamdir. Mahalla faqat jismoniy tarbiyani emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy tarbiyani ham ta'minlaydi. Yoshligidan insonning millatga xos dunyoqarashi, xarakteri va mentaliteti mahallada shakllanadi hamda rivojlanadi. Xalqimizda: **"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona"**, deb bejiz aytilmagan. Mahallada ulg'ayayotgan har bir bolaning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul hisoblanadi.

"Darhaqiqat, mahalla xalqimiz uchun Vatanning aziz parchasi, doimo ardoqlanadigan va e'zozlanadigan tabarruk go'shadir. Mahalla bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik maskanidir. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.

2026-yil yurtimizda **"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"** deb e'lon qilingan.

"Xalqimiz oldiga qo'ygan buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz ham tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi" [1].

"Mahalla biz barpo etayotgan yangi jamiyat – inson qadri ulug'lanadigan, huquq va erkinliklari ta'minlanadigan, qonun ustuvorligi mustahkam qaror topadigan ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatining asosidir" [4, 378].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda mahalla bo'lib, jamoa bo'lib yashashning necha ming yillik tarixi mavjud. Bugungi kunda mahallalarda xalqimizning boy an'analari yangi mazmun kasb etmoqda. Bu esa jamiyatimiz hayotining eng samarali, ayni paytda milliy va xalqchil ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. *Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 42 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktabrdagi "Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori // *Mahalla: o'z-o'zini boshqarish huquqiy kafolati. Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami*. – Toshkent, 1992.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligini samarali tashkil etish to'g'risida"gi 292-son qarori // *Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami*. – Toshkent, 2024.
5. Mirziyoyev Sh. M. *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 378.
6. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – Серия: «Социо-Логос». – Москва: Терра, 2008. – 400 с.
7. Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
8. Muhammad ibn Ja'far al-Narshaxiy. *Buxoro tarixi*. – Toshkent, 1966.
9. Temur A. *Temur tuzuklari*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1993. – 344 b.
10. Kalonov K. K. Mahalla va jamoatchilik fikri // *O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat, fan va jamoatchilik fikri* (ilmiy-amaliy seminar ma'lumotlari). – Toshkent: Ijtimoiy fikr markazi, 2001. – B. 135.